

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODİYOT UNIVERSİTETI**

**Qo'lyozma huquqida  
UDK: 338.488.22:640.41(575.1)**

**RAXMONOVA NIGINA ANVAROVNA**

**MEHMONXONALARDA XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGINI  
OSHIRISH IMKONIYATLARI**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)  
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan  
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: i.f.n., prof. M. Amonboyev**

**Toshkent – 2025**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. MEHMONXONALARDA XIZMAT KO'RSATISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....</b>	<b>12</b>
1.1. Xizmatlar sohasida mehmonxona xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari...	12
1.2. Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishda samaradorlik ko'rsatkichlari.....	23
1.3. Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifatiga ta'sir qiluvchi omillar.....	30
Birinchi bob bo'yicha xulosa .....	41
<b>II-BOB. MEHMONXONALARDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISHDA MEHMONXONA XODIMLARI TAHLILI .....</b>	<b>44</b>
2.1. Mehmonxona xizmatlari bozorida sifatlari xizmat ko'rsatish holati.....	44
2.2. Mehmondo'stlik sanoatidagi professional xodimlar - xizmat ko'rsatish sifatini oshirish omili sifatida.....	54
2.3. Toshkent shahrida joylashgan kichik mehmonxonalarda xizmat ko'rsatishdagi mavjud holat va mehmonxonada xizmat ko'rsatuvchi xodimlar salohiyatini baholash me'zoni.....	67
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa .....	87
<b>O'ZBEKISTON MEHMONXONALARIDA KADRLAR KASBIY III-BOB SALOHIYATINI OSHIRISH ORQALI XIZMAT KO'RSATISH SAMARADORLIGIGA ERISHISH .....</b>	<b>90</b>
3.1. O'zbekiston bo'ylab mehmonxona kadrlar bazasini samarali to'plash va xodimlar salohiyatini oshirish modeli.....	90
3.2. Mehmonxonalarda "sifatlari xizmat ko'rsatish" kursatkichlar tizimi vositasida xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish.....	100
3.3. Mehmonxonalarda sifatlari xizmatni tashkil qilishda mahalliy tizimni joriy qilish istiqbollari.....	110
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	119
XULOSA .....	120
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI .....</b>	<b>123</b>
<b>ILOVALAR .....</b>	<b>130</b>

## Kirish

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global raqobatning kuchayishi sharoitida turizm va mehmonxona sohasi jadal rivojlanib, ham tabiiy, ham madaniy merosni himoya qilish va ularni kelajak avlodga etkazishda harakatlantiruvchi kuchga aylanmoqda. Butunjahon turistik tashkilotining (UN tourism) so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, “2024-yilning birinchi choragida xalqaro sayyoohlар soni pandemiyadan oldingi darajaning 97 foizini tashkil etib, yanvar-mart oylarida 285 milliondan ortiq sayyoх xalqaro miqyosda sayohat qilgan. Bu 2023-yilning birinchi choragiga nisbatan qariyb 20 foizga ko‘p bo‘lib, sohaning pandemiya ta’siridan deyarli to‘liq tiklanganidan dalolat beradi”<sup>1</sup>. Bu esa xalqaro miqyosda turizm infratuzilmasi, ayniqsa, mehmonxona xo‘jaligi faoliyatini yanada kengaytirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda turizm sohasida mehmonxona biznesini rivojlantirish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Mehmonxonalarни onlayn bron qilish tizimlarini takomillashtirish, mehmonxona faoliyatida yig‘iladigan katta ma’lumotlar orqali mijozlarning xulq-atvorini aniqlash va shunga mos xizmatlarni ishlab chiqish, mijozlar mammunligiga erishish, barqaror rivojlanish va ekologik yondashuv, tarmoqlarda faol ishtirok etish, mehmonxonaning ijobjiy imijini shakllantirish va keng ko‘lamli auditoriyaga yetib borish, mehmonxona boshqaruvi va kadrlar salohiyati, hududiy rivojlanish va klaster yondashuv bu borada olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlardan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar sharoitida turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida rivojlantirish, hududlarda yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadi va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot yoki xodimning ish samaradorligi, mijozlarni qoniqtirish darjasи, resurslarni tejash va vaqtdan samarali foydalanish ko‘nikmalariga

---

<sup>1</sup> <https://www.unwto.org/>

xizmatlarni tez, sifatli va iqtisodiy jihatdan manfaatli tarzda ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashish orqali “mehmonxona korxonasida xizmat ko‘rsatish samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini takomillashtirish, mehmonxonada faoliyat yurituvchi xodimlar salohiyatini oshirish dasturi ishchi-xodimlarning samarali mehnatini rag‘batlantiruvchi mehnatga haq to‘lashdagi “samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari” tizimiga ularda kasbga sadoqat hissini kuchaytiruvchi ta’lim darajasi va shaxsiy kasb kompetensiyalarini uyg‘unlashtirish, mehmonxonalarida xodimlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishga investitsiya kiritish hamda imtiyozlar tizimi (subsidiya)ni qo‘llashning maqbul nisbatini ta’minalash orqali kadrlar kasbiy salohiyatini oshirish, mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida uzoq muddatli prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minalash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son “O‘zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 28-maydaggi PF-6002-son “[Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo’llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida](#)”, 2021-yil 9-fevraldaggi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydaggi 433-son “Mehmonxona xo‘jaligi faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur

sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'naliшlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo'naliшiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o'rganilganlik darjasи.** Turizm sohasi va uning tarkibida mehmonxona xo'jaligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: M.B Birjakov, A.D.Chudnovskiy, V.G.Fedsov, Yu.F.Volkov, I.Y.Lyapina, A.V.Sorokina boshqalar tomonidan tadqiq qilingan<sup>2</sup>. Xizmat ko'rsatishda sifat va samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda muammolarni o'rganish bo'yicha xorijiy olimlar V.A.Zeithaml, L.L.Berry, A.Parasuraman, H.Takeuchi, J.Quelch, I.Alam, C.Perry, Ye.A.Gorbashko, N.D.Ilenkova, Ye.N.Chijova, Yu.A.Vinokurov va boshqalar o'z tadqiqotlarini olib borgan<sup>3</sup>.

---

<sup>2</sup> Биржаков М.Б. Введение в туризм. — М—СПб.: «Издательский Дом ГЕРДА», НП «Издательство «Невский Фонд», 2014 г. – 544 с.; Трухачев А.В. Туризм. Введение в туризм. «АГРУС», 2013 г. – 490 с.; Чудновский А.Д. и др. Гостиничный бизнес в современной экономике: учебное пособие. «Русайнс», 2022 г. – 238 с.; Федцов В.Г. Культура гостинично-туристического сервиса: учебное пособие. – Ростов н/Д : Феникс, 2008 г. – 503 с.; Волков Ю.Ф. Введение в гостиничный и туристический бизнес: учебное пособие. Ростов н/Д, 2017 г. – 357 с.; Ляпина И.Ю. Гостиничное дело. Организация и технология гостиничного обслуживания. – М., 2019 г. – 572 с.; Сорокина А.В. Организация обслуживания в гостиницах и туристских комплексах. – М., 2010 г. – 174 с.

<sup>3</sup> Phillips, Lynn W., Dae R. Chang, and Robert D. Buzzell (1983), "Product Quality, Cost Position, and Business Performance: A Test of Some Key Hypotheses," Journal of Marketing, 47 (Spring); Anderson, Carl and Carl P. Zeithaml (1984), "Stage of the Product Life Cycle, Business Strategy, and Business Performance," Academy of Management Journal, 27 (March), 5-24.; Zeithaml, V. A., Berry, L. L., & Parasuraman, A. (1988). Communication and Control Processes in the Delivery of Service Quality. Journal of Marketing, 52(2),35–48.; A. Rabin, Joseph H. (1983), "Accent Is on Quality in Consumer Services This Decade," Marketing News, 17 (March 4), 12.; Takeuchi, Hirotaka and John A. Quelch (1983), "Quality Is More Than Making a Good Product," Harvard Business Review, 61 (July-August), 139 Alam, I., Perry, C. (2002). A customer-oriented new-service development process. Journal of Services Marketing, 16, 515-534.; Горбашко, Е. А. Управление качеством: учебник для среднего профессионального образования / Е. А. Горбашко. — 3-е изд., перераб. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2019.; Н. Д. Ильенкова, С. Ю. Ягудин и др. Управление качеством: Учебник— Москва: ЮНИТИ, 1998. Козырев В.М. Основы современной экономики: учебник. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. Финансы и статистика, 2001. – 432 с.; Чижова Е.Н., Брежнев А.Н. Проблема трактовки эффективности как экономической категории // Актуальные проблемы экономической науки: материалы междунар. Интернет-конф. – Белград БГТУ им. В.Г. Шухова, 2005. 230-235 с; Винокуров Ю.А. Эффективность как фундаментальная экономическая категория // Современные тенденции в экономике и управлении: новый взгляд. – 2010. – № 2. – С. 155–159.

Mamlakatimizda turizm sohasi, mehmonxona xo‘jaligi xizmatlari sifati va samaradorligini oshirish muammolari mahalliy olimlar<sup>4</sup> Q.X.Abdurahmonov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, M.M.Muhammedov, A.M.Abduvohidov, A.A.Eshtayev, M.T.Aliyeva, S.R. Safayeva, A.N.Norchayev, M.T.Alimova, D.I.Abidova, R.S.Amriddinova, A.N.Xoliqulov ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rib chiqilgan.

Biroq, xizmat ko‘rsatish samaradorligi tushunchasini aynan mehmonxona korxonasida qaysi omillar ta’sirida yanada takomillashtirish to‘g‘risida etarlicha o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari hamda korxonalar rivojlanishining ilmiy-metodologik asosini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekiston mehmonxonalarida xizmat ko‘rsatishning hozirgi holatini tahlil qilish asosida mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini, xizmat ko‘rsatish sifatiga tasir qiluvchi omillarni aniqlash va tegishli amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash;

---

<sup>4</sup> Pardaev M.Q, Xalikulov A.N. va Raximov H.A "Mexmonxona xo‘jaliklarida samaradorlikni oshirish muammolari" Monografiya – T: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2013.; Tuxliyev I.S. Abduxamidov S.A.Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) –T.: «Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi», 2021 y. - 424 b.; Tuxliyev I.S. va b. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2010. – 264 b.; Muhammedov M. va b. Xizmat ko‘rsatish sohasi va turizmni rivojlantirishning nazariy asosları. S.: 2007. – 299 b.; Eshtaev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. – T.: Fan, 2011.; Aliyeva M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. T.: 2007 y. - 340 b; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida).: iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. -S.: SamISI, 2017. - 265 b.; Amriddinova R.S. Mehnat resurslarini boshqarish asosida turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari (Samarqand viloyati turizm korxonalari misolida)” i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – S.: SamISI, 2012.; A.N.Xoliqulov Mehmonxonalarida servis sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand mehmonxonalar misolida). Nomzodlik dissertatsiyasi. SamISI, 2010 y. - 169 b.

mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatishda sifat nazoratini tizimli ravishda tashkil qilish maqsadida sifat evalyutsiyasini o‘rganish, xizmat ko‘rsatish sifatiga ta’sir qiluvchi omillarni tizimli tasniflashni amalga oshirish;

mehmonxona faoliyati samaradorligi tushunchasi va unga ta’sir qiluvchi omillar chuqur o‘rganilib, mehmonxona faoliyati samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlash;

mehmonxona korxonasida sifatli xizmat yaratish orqali mijoz tanloviga o‘zaro ta’sir o‘tkazuvchi omillar tahlilini amalga oshirish va omillarning o‘zaro ta’sir doirasi aniqlash;

mehmonxonada faoliyat yurituvchi xodimlar kasbiy salohiyatining xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’sirini aniqlash;

xodimlar kasbiy salohiyatini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish;

mehmonxonada faoliyat yurituvchi xodimlarning ish samradowligini oshiruvchi asosiy ko‘rsatkichlarni aniqlash;

mehmonxonada xizmat ko‘rsatish samaradorligiga erishish jarayoniga ta’sir qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimi bo‘yicha ilmiy takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekiston mehmonxonalarida imtiyozlar tizimi orqali kadrlar salohiyatini oshirish usullarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti.** O‘zbekistonda joylashgan mehmonxonalarda ko‘rsatilayotgan xizmatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti.** Xizmat ko‘rsatish sifatiga e’tibor qaratgan holda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish yo‘llarini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada abstrakt-mantiqiy tahlil, tizimli tahlil, sabab-oqibat tahlil usullari, statistik kuzatish, so‘rovnama, korrelyasion-regression tahlil, va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “mehmonxona korxonasida xizmat ko‘rsatish samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmuni xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot yoki xodimning ish samaradorligi, mijozlarni qoniqtirish darajasi, resurslarni tejash

va vaqtan samarali foydalanish ko‘nikmalariga xizmatlarni tez, sifatli va iqtisodiy jihatdan manfaatli tarzda ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashish orqali takomillashtirilgan;

mehmonxonada faoliyat yurituvchi xodimlar salohiyatini oshirish dasturi ishchi-xodimlarning samarali mehnatini rag‘batlantiruvchi mehnatga haq to‘lashdagi “samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari” tizimiga ularda kasbga sadoqat hissini kuchaytiruvchi ta’lim darjasи va shaxsiy kasb kompetensiyalarini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

O‘zbekiston mehmonxonalarida xodimlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishga investitsiya kiritish ( $I_{KS} = 0,75$ ) hamda imtiyozlar tizimi (subsidiya)ni qo‘llash ( $S_{KS} = 0,25$ ) ning maqbul nisbatini ta’minalash orqali kadrlar kasbiy salohiyatini oshirish asoslangan;

O‘zbekistondagi mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030 yilga qadar asosiy faoliyatining prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

mehmonxonada xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarning ahamiyatini tahlil qilingan va aniqlangan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi, tasnifi ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan;

mehmonxonada xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish mehmonxonada faoliyat yurituvchi xodimlarga bog‘liqligi, xodimlar ish samaradorligini oshirish esa kadrlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish modelidan foydalangan holda amalga oshishi asoslangan;

mehmonxona xodimlar salohiyatini oshirish dasturini takomillashtirishning zaruriy mexanizmlari taklif qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani hamda xulosa, taklif va

tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tgani, shuningdek, olingen natijalarining amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan aniq tavsiyalarning nazariy va metodik asoslarini shakllantirish imkoniyati mavjudligi hamda ulardan mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish orqali mehmonxonada ko‘rsatilinayotgan xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish, mijozlarning xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini maksimal qondirish va xizmatlarning naflilik darajasini oshirish bo‘yicha takliflardan soha tuzilmalari faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi hamda sohani istiqbolli rivojlantirish vazifalarining samarali ijrosini tashkil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mehmonxonada xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish yuzasidan olingen ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “xizmat ko‘rsatish samaradorligi” tushunchasining iqtisodiy mazmunini xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot yoki xodimning ish samaradorligi, mijozlarni qoniqtirish darjasи, resurslarni tejash va vaqtdan samarali foydalanish ko‘nikmalariga xizmatlarni tez, sifatli va iqtisodiy jihatdan manfaatli tarzda ko‘rsatish qobiliyatini rivojlantirish nuqtai nazaridan yondashish orqali takomillashtirishni asoslovchi nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliv o‘quv yurtlari talabalari uchun mo‘ljallangan “Mehmondo‘stlik industriyasida daromadlarni boshqarish” nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan. (Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2022-yil 24-oktabrdagi 328-son buyrug‘i). Mazkur ilmiy nuqtai nazarning o‘quv adabiyotida ilmiy asoslanishi natijasida talabalar va ilmiy tadqiqotchilarining “xizmat ko‘rsatish samaradorligi” tushunchasiga oid ilmiy qarashlari yanada kengayishiga imkon yaratilgan;

mehmonxonada faoliyat yurituvchi xodimlar salohiyatini oshirish dasturi ishchi-xodimlarning samarali mehnatini rag‘batlantiruvchi mehnatga haq to‘lashdagi “samaradorlikning asosiy ko‘rsatkichlari” tizimiga ularda kasbga sadoqat hissini kuchaytiruvchi ta’lim darajasi va shaxsiy kasb kompetensiyalarini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan PQ-238-son qaroriga ilova “Turizm sohasini yanada rivojlantirish va turizm faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 14-noyabrdagi 03-12-17-8039-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish mehmonxonada faoliyat yurituvchi kadrlar kasbiy salohiyatini rivojlantirish orqali xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, bevosita doimiy mijozlar sonini ortishiga xizmat qilgan;

O‘zbekiston mehmonxonalarida xodimlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishga investitsiya kiritish ( $I_{KS} = 0,75$ ) hamda imtiyozlar tizimi (subsidiya)ni qo‘llash ( $S_{KS} = 0,25$ ) ning maqbul nisbatini ta’minalash orqali kadrlar kasbiy salohiyatini oshirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi tomonidan PQ-135-son qarorga ilova “Turizm sohasidagi resurs va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hamda mavjud muammolarni tezkor hal etish bo‘yicha yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 14-noyabrdagi 03-12-17-8039-sonli ma’lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish mehmonxonalarda xodimlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishga investitsiya kiritish hamda imtiyozlar tizimini qo‘llashning maqbul nisbatini ta’minalash orqali xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

O‘zbekistondagi mehmonxonalarda xizmat ko‘rsatish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikning ekonometrik modeli asosida 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan asosiy faoliyatining prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagli PQ-238-son “Turizm

yo‘nalishidagi islohatlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorini tayyorlashda inobatga olingan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 14-noyabrdagi 03-12-17-8039-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish O‘zbekiston mehmonxonalariga davlat tomonidan moliyaviy imtiyozlar berish natijasida xizmat ko‘rsatish sifatini jahon standartlariga asosan tashkil qilish asosida raqobatbardoshlik ustunliklarini takomillashtirish, subyektlar faoliyatini kengayishi va iqtisodiy samaradorlikning oshirilishi o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash imkonini bergen.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 5 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta (5 ta milliy va 2 ta xorijiy nashrlarda) maqola nashr etilgan.

**Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 140 betni tashkil etgan.

